

“眉” “牙” SOMATIK IYEROGLIFLAR TAHLILIGA OID

Mahliyo Valiyeva

TDSHI, Xitoyshunoslik fakulteti, Lingvistika yo‘nalishi

2-kurs magistranti

Maqolaning qisqacha anotatsiyasi: Xitoy tilida somatik iyerogliflar va ularning xususiyatlari dolzarb mavzulardan. Uning ahamiyatli tomoni dastlabki rivojlanishidan hozirgi xitoy tilidagi xususiyatlari taqdiq qilingan.

Asrlar mobaynida iyeroglifning ma‘nolari ko‘paydi, shakl hamda ma‘no bir-biridan ajraladi, iyeroglif va so‘z har xil ko‘rinishga keladi. Iyerogliflarning rivojlanishi va o‘zgarishi oqibatida leksik tizimda ham o‘zgarishlar yuzaga keladi. Buni biz xitoy tilidagi 眉[méi] hamda 牙[yá] somatik iyerogliflari misolida ko‘rishimiz mumkin.

Somatik leksika (yunon tilida – soma, “tana, badan”) – har qanday tilning universal leksik guruhlaridan biri bo‘lib, mahalliy va horijiy tilshunoslarning tarixiy-qiyosiy, struktural-qiyosiy va lingvumdaniy ishlaridagi eng keng tarqalgan tadqiqot obekti hisoblanadi. Tadqiqotlarda ushbu leksika har qanday tilning leksik-tematik tizimining eng birinchi masalasi sifatida tanlanadi.¹

“眉” [méi] iyeroglifi tasviriy turkumga oid iyeroglif hisoblanadi. 甲骨文 husnixatida past qismida ko‘zning surati chizilgan, tepa qismida “qosh” tasvirlangan. Agar pastki qismda ko‘zni tasvirlamasa, qosh ko‘rinishini ko‘rish juda qiyin bo‘lar edi. Aynan mana shu holat “aks ko‘rinishdagi tasviriy ieroglif” deyiladi. 金文 husnixatidagi yozuv juda ham asliga o‘xshash tasvirlangan. Uchta chiziqcha qoshning ustida, ko‘zning qovoqlarining tepasida o‘sganga o‘xshaydi. Qosh tagida ko‘z 目 tasvirlangan.²

小篆 yozuvida³ tasviriy ieroglifning shakli o‘zgartirilgan, qosh ko‘rinishiga unchalik o‘xshamaydi. 楷书 husnixatiga kelib, 眉[méi] ko‘rinishida yozila boshlangan, hamda butunlay belgili piktogrammaga aylanib qolgan.

«说文解字»⁴ da shunday tarif berilgan: “眉，目上毛也。从目，像眉之形，上像额理也。凡眉之属皆从眉。ya’ni 眉[méi] ko‘z temasida yung degan

¹ Вакк Ф.О. О соматической фразеологии в современном эстонском литературном языке: Автореферат дис. ... канд. филол. наук. 1964.

² “图说细说汉字大全集” – “Piktografiya iyerogliflarga batafsil tushuncha berish qo‘mitastasi tomonidan tuzilgan” Pekin. 2010 y. 355-356- bet.

³ “SyaoChjuan” “小篆” kichikbelgilartamg‘asi. Sin Shixuangditomonidan av. 26 yilida yozuvni yangi tartibga solish jarayoni ro‘y berdi. Sin Shixuangdivaziri Li Si, ancha keng tarqalgani iyerogliflarni jamlab yozuv grafikasini mukammallashtirdi. U yaratgan xat “SyaoChjuan” deb nomlandi. “Da Chjuan” va “SyaoChjuan” xatlaridan tamg‘alar tayyorlashda hozir ham ishlatiladi.

⁴ Милодий 121 йилида Сюй Шэн⁴ «Шо вэн цзе цзы» (说文解字)⁴ луғатини тузди. Олим 10000 га яқин иероглифларни ўрганиб чиқиб, иероглиф шакли асосида унинг маъноси ва келиб чиқишини тушунтирди. «Шо вэн цзе зи» – Қадимги Хитойда яратилган энг йирик филологик асар ҳисобланади. Бу луғатда сўзнинг фақатгина битта маъноси келтирилади, яъни асл маъноси (本义).

ma'noni bildiradi. 目 ya'ni ko'z tepasida qosh shakli shuningdek, u peshonada ajinlar shakliga ham o'xshaydi. 眉[méi] iyeroglifi barcha holatlarda qosh deb tushunilishi kerak.

眉[méi] ning asl ma'nosi qosh. Masalan, «诗经•卫风•硕人» “Nazmnoma”- “Vei davlati urflari”- “Go'zal ayol”da quydagicha satrlar bor: “螭首蛾眉，巧笑倩兮，美目盼兮”。Ya'ni, “Peshonasi keng, qoshlari yoy, o qandayin chiroyli va maftunkor tabassum, o qandayin go'zal va jozibakor ko'zlar”, deb go'zal ayolning ta'rifi keltirilgan.

“螭” – qin deb o'qiladi. Tsikadaning bir turiga mansub hasharot nomi. Uning jussasi kichkina, boshi to'rtburchak shaklda, keng peshonasida naqshi bor. Yuqoridagi misrada “螭首” deb ayollarning peshonasini tsikadanikiga o'xshatgan. “蛾眉” (yarim oy) ipak kapalagining uzun, ingichka va egri sezgi moylovlari bo'lib, ayol kishining chiroyli qoshlarini tariflashda qo'llaniladi. Keng peshona, egri qoshlar ayollarning chiroyini sifatlaydi. Keyinchalik “蛾眉” ayollarning chiroyini tasvirlashda yoki go'zal ayollarni chaqirishda qo'llanilgan. Masalan, 白居易ning «长恨歌» asarida: “六军不发无奈何，婉转蛾眉马前死。” “imperatorning oltita armiyasi ham muloyim kamon qosh ayollarning oldida hech narsaga qarshilik qila olmaydi.” deyilgan. Qosh tashqi ko'rinishning eng muhim qismlaridan biridir. Shuning uchun qadimgi odamlar ilgaridan qosh bo'yash o'zgacha husn bag'shlashini bilganlar. Masalan, 朱庆馀ning «近试上张水部» asarida: “妆罢低声问夫婿，画眉深浅入时无” ya'ni, “Boyanishni eringdan past ovozda so'ra, qoshni bo'yash me'yorida bo'lsin.” deyilgan.

Shuningdek, 眉[méi] yana ko'rinishni ifodalaydi. Masalan, 毛泽东ning «贺新郎•挥手从兹去» sida, “眼角眉梢都似恨，热泪欲零还住” ya'ni, “Ko'z va qosh qiridan nafratlanadiganga o'xshaydi, ko'z yoshlar hali ham yo'qolmagan.”

Hozirda badavlat ayolni sifatlash uchun “眼睛会说话” “uning ko'zlari gapira oladi” deyiladi. Lekin qadimda ko'pincha “眉语” “ko'z qoshlar gapira oladi” deyilgan. Masalan, 李白 «上无夫人»: “眉语两百笑，忽然随风飘” “Qoshlar tabassumida, shamol bilan birga suzib yuradi” degan.

Shuningdek 眉[méi] bilan bog'liq quydagi iboralar mavjuttur: “眉飞色舞” (Yuzda xursandchilik va tabassum), “眉来眼去” (qosh ko'zini suzmoq), “眉开眼笑” (xursand ko'rinish (chexra)), “眉眼传情” (qosh ko'zini suzmoq) kabi.

“眉” ko'zning tepasida vujudga kelgan. Agar kitob matnining tepa qismi “kitob qoshi” deb atalsa, uning tepasiga muhokama qo'shilsa, “眉批” (mei pi) deyiladi.

Hozirgi xitoy tilida 眉毛, 眉头 qosh ma'nosida qo'llaniladi ya'ni ikki morfemaga o'zgartirilgan. Shuningdek 眉 ishtirok etgan so'zlar odatda qosh bilan bog'liq so'zlarni ifodalaydi, masalan: 眉刷- qosh uchun shetka, 眉笔 – qosh qalam va boshqalar.

“牙” [yá] iyeroglifi tasviriy turkunga oid iyeroglif hisoblanadi. 甲骨文 husnixatidagi ko‘rinishi yovvoyi hayvonning qoziq tishi ko‘rinishida bo‘lgan. 小篆 husnixatida yozuv ancha mukammallashtirilgan. 楷书 husnixatiga kelib, “牙” ko‘rinishida yozila boshlangan.⁵

«说文解字»da shunday tarif berilgan: “牙，牡齿也像上不相错之形。凡牙之属皆从牙” ya’ni “牙[yá] o‘zaro qarama qarshi joylashgan qoziq tishlarning ko‘rinishi. 牙[yá]ning deyarli hamma qismlari tish tasviridagi qismlar bilan bir xil” deyilgan.

牙 [yá] ning asl ma’nosi katta, qoziq tishdir.

Qadimda odamlar old qatorda joylashgan tishlarni 齿[chǐ], yordamchi vosita milk, suyakdagi jag’ tishlar 牙[yá] deb atalgan. Hozir esa 牙齿[yá chǐ] deyiladi. Masalan, «后汉书•华佗传» “hou han shu • hua tuo zhuan – Han sulolasining tarixi • Hua tuo biografiyasi” asarida: “齿牙完坚” deyilgan. Buning manosi shuki, “oldingi qatordagi va jag’ tishlar to‘liq mustahkam.”

Tishlarning vazifasi tishlash, shuning uchun u 咬 – tishlamoq so‘zini ham ifodalab keladi. Masalan, «战国策•秦策»da: “轻起相牙者，何则？” deyilgan. Buning ma’nosi shuki: “Anavi itlar sakrab turib bir birni tishlab ketdi, nimaga unday qildi?”

Ba’zi narsalarning shakli tishga o‘xshaydi. Shuning uchun ko‘pincha, “牙” bilan birga keladi. Qadimda askarlar bayrog‘ining cheti tish shaklida bo‘lgan, shuning uchun uni “牙旗” - tishli bayroq deb ataganlar. Masalan, 潘岳ning «关中诗» “Xitoydagi she’rlar” asarida “高牙乃建” degan, buning ma’nosi shuki, “askarlarning katta bayrog‘i balandlarga ko‘tarildi”.

Shunga e’tibor berish kerakki, qadimda ko‘pincha “牙郎” degan so‘z uchragan. Bu so‘z bugungi kunga kelib “牙郎中（牙科大夫）” – “tish shifokori, stomatolog” degan ma’noni anglatadi.

牙shuningdek kalit hamdir, yana tarkibida “牙” bor ba’zi ierogliflar “ya” o‘qilishiga ega. Masalan, “𪔐” (ya – hayron qoldirmoq), “𪔑” (ya – oy), “𪔒(ya – qarg’a, hakka)”, “𪔓 (ya – takrorlanmas)”, “𪔔 (ya - qurt)” kabilardir.

Yuqoridagifikrlardanxulosaqiladiganbo‘lsakbuhaqdaquydagito‘xtamgakelish mumkin;

1. Xitoy somatik iyerogliflari qadimdan qo‘llanilib hozirgi zamonaviy xitoy tilida ikki morfemaga o‘zgartirilgan. 眉ningaslma’nosiqadimdanqoshbo‘lib, undantashqariayollarnita`riflashvaularninomlashda ham qo‘llanilganliginikuzatdik.

2. 眉

somatikiyeroglifiiboralardakengqo‘llanilganvaasosanyuzqismibilanbog`liqharakatlarniifodalagan.

⁵ “图说细说汉字大全集” – “Piktografiya iyerogliflarga batafsil tushuncha berish qo‘mitastasi tomonidan tuzilgan”Pekin. 2010 y. 7-8- bet

3. 牙somaikiyeroglifiqadimdan jag` tishlarni, 齿esa old qatortishlarniifodalagan, hozirgizamonaviyxitoytilidaikktamorfemabirgaqo‘llanilib 牙齿tarzidaqo‘llaniladi.

4. Barchatarkibida “牙” borierogliflarningma’nositishbilanbog’liqbo‘ladi. Masalan, “𪔐” (cheng – tirgak, tiramoq) . Yana tarkibida “牙” borba’ziierogliflar “ya” o‘qilishigaega. Masalan, “讶” (ya – hayronqoldirmoq) , “呀” (ya – oy) , “鸦(ya – qarg’a, hakka)”, “雅 (ya – takrorlanmas) ”, “蚜 (ya - qurt) ” kabi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. «图说细说汉字大全集» – “Piktografiya iyerogliflarga batafsil tushuncha berish qo‘mitas tasitomonidan tuzilgan” 2010
2. NosirovaS.A Xitoy tilshunosligi tarixi. 2013.
3. Вакк Ф.О. О соматической фразеологии в современном эстонском литературном языке: Автореферат дис. ... канд. филол. наук.
4. 孙维张 《汉语熟语学》， 长春: 吉林教育出版社, 1989年.Sun Wei zhang.Xitoytilifrazeologizmi. Changchun: Jilin ta’limnashriyoti, 1989.
5. «古代汉语字典》， 北京。2005年.
6. «现代汉语词典》， 上海:汉语大词典出版社1997年. Hozirgi xitoy tili lug’ati. – Shanhay: Xitoy tili katta lug’atlar nashriyoti1997.